



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI DIREKTORINING
BUYRUG'I**

24.09.2024

26-um-son

**O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 19-iyuldagagi
“O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga
oshirishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 234-um-son buyrug‘i ijrosini
ta‘minlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 19-iyuldagagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 234-um-son buyrug‘i ijrosini ta‘minlash hamda Yuristlar malakasini oshirish markazida davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 19-iyuldagagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 234-um-son buyrug‘i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Buyruq bilan:

Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish reglamenti;

Adliya organlari va muassasalarida tashkil etiladigan tanlash (tender) o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyalari to‘g‘risidagi nizom;

Adliya organlari va muassasalarini tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo‘yicha yo‘riqnomasi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida tanlash (tender) o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazining ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan tovarlarni (ish, xizmat) qabul qilish komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Direktor o‘rinbosari (K.Islamov) Yuristlar malakasini oshirish markazida davlat xaridlarini amalga oshirishda mazkur buyruqda belgilangan tartibga qat’iy amal qilinishini ta’minlasin.

5. Yuristlar malakasini oshirish markazida tashkil etiladigan har bir tanlash (tender) o‘tkazish yakuni bo‘yicha xarid komissiyasi a’zolariga Markazning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ish joyi bo‘yicha lavozim maoshining 25 foizigacha miqdorida ustama tayinlansin.

6. Yuristlar malakasini oshirish markazi direktorining 2020-yil 31-martdagi 23-um-son, 2020-yil 3-noyabrdagi 57-um-son va 2022-yil 4-fevraldagi 2-um-son buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor



Y.KANYAZOV

Toshkent shahar

Kiritildi:

Bo‘lim boshlig‘i

E.QOSIMOV

**Kelishildi:**

Direktor o‘rinbosari

K.ISLAMOV



O‘qituvchi

J.JO‘RAYEV

**Buyruq bilan tanishdim**

O.JALOLOV

A.NORMURODOV

A.ALIMOV

R.ALIMOV

A.UMAROV

Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktorining
2024-yil “24” sentyabrda
26-um-son buyrug‘iga
1-ILOVA

**Yuristlar malakasini oshirish markazida tanlash (tender) o‘tkazish bo‘yicha
xarid komissiyasi tarkibi**

1	Direktor	E.Kanyazov
2	Direktor o‘ribbosari	K.Islamov
3	Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi	O‘Jalolov
4	Ma’muriy xo‘jalik va mehnatni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i	E.Qosimov
5	Xususiy-huquqiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi	J.Jo‘rayev
6	Bosh buxgalter	A.Normurodov
7	Komissiya kotibi (buxgalter)	A.Alimov

*Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga
yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.*

*“Davlat xaridlari to‘g‘risidagi” Qonunga muvofiq komissiya a’zolarining tarkibi davlat
xaridlari o‘tkazilishi hususiyatlaridan kelib chiqib o‘zgartirish kiritilishi mumkin.*

Xarid komissiyasi kotibi ovoz berish huquqiga ega bo‘lmaydi.

Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktorining
2024-yil “24” sentyabrda
26-um-son buyrug‘iga
2-ILOVA

**Yuristlar malakasini oshirish markazi ehtiyojlari uchun
xarid qilinayotgan tovarlarni (ish, xizmat) qabul qilish
komissiyasi tarkibi**

1	Zamonaviy axborot texnalogiyalari joriy etish masofadan o‘qitishni tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi, komissiya rahbari	R.Alimov
2	Buxgalter	A.Alimov
3	Omborchi	A.Umarov

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.